

Toshkent shahri

01.04.2022-yil

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti (bundan keyin matnda «Universitet» deb yuritiladi) nomidan Sirojiddinov Shuxrat Samariddinovich Nizom asosida ish yurituvchi bir tomongan va Respublika aerogeodeziya markazi (bundan keyin matnda «Markaz») nomidan Direktor Omonov Akmal Solijonovich Nizom asosida ish yurituvchi ikkinchi tomongan quyidagilar to'g'risida kelishuvlarga erishdilar:

### **1. Shartnomaning predmeti**

Shartnomaning Tomonlari o'rtasida geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi ma'lumotlarni toplash, tahlil qilish, geografik obyektlar nomlarini normallashtirish, geografik obyektlarning amalda foydalanilayotgan va normallashtirilgan nomlarini hamda ularga oid ma'lumotlarni (navbatchi xarita va ularning formulyarlari, ma'lumotnomaviy, arxivga oid, statistik, tarixiy, ensiklopedik va boshqa) rasmiy manbalardan foydalanib, Geografik obyektlarning nomlari davlat reyestri ma'lumotlar bazasiga kiritish uchun tayyorlash. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish hamda hududlardan taqdim qilingan tarixiy, etnografik xususiyatga ega joy nomlarini qonun hujjalari talablariga muvofiq yoki nomuwoqilagini ilmiy asoslab berish mazkur shartnomaning predmeti sifatida belgilanadi.

### **2. Shartnomaning maqsadi**

2.1. Tomonlar o'zaro kelishuviga muvofiq «Universitet» Respublika aerogeodeziya markazi tasarrufidagi Respublika toponimika xizmati faoliyatida O'zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuning ijrosini sifatlari ta'minlash, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini samarali amalga oshirish, shuningdek, uning ilmiy-innovatsion jihatdan yanada rivojlantirishga xizmat qiluvchi hamda bo'limning ish samaradorligini ta'minlovchi, ilmiy ishlanmalar, o'quv-uslubiy ta'minotlar, bo'limning adabiyotlarini va manbalarini tarjima qilish, shartnomaning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi.

2.2. Tomonlarning ko'p qirrali hamkorligi uzoq muddatli sherikchilik, tenglik va samaradorlik, o'zaro manfaatli shartnomalar tuzish tamoyillariga asoslanadi.

### **3. Tomonlarning majburiyatları**

3.1. Mazkur shartnoma doirasida «Universitet» quyidagilarni kafolatlaydi:

a) Respublika aerogeodeziya markazi tasarrufidagi Respublika toponimika xizmati faoliyatida O'zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuning ijrosini sifatlari hamda o'z vaqtida ta'minlashida amaliy ko'mak ko'rsatadi.

3.2. Mazkur shartnoma doirasida "Markaz" quyidagilarni kafolatlaydi:

a) «Universitet» tomonidan Respublika aerogeodeziya markazi tasarrufidagi Respublika toponimika xizmati faoliyatida O'zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuning ijrosini sifatlari hamda o'z vaqtida ta'minlashida amaliy ko'mak ko'rsatganligi uchun kelishilgan haq summasini o'z vaqtida universitet hisob raqamiga o'tkazib berish;

### **4.Umumiyy qoidalar va boshqa shartlar**

4.1. Ushbu shartnomaning muddati uzaytirilishi, o'zgarishi yoki bekor qilinishi tomonlar kelishuviga muvofiq dalolatnoma asosida amalga oshiriladi.

4.2. "Markaz" ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlari) uchun universitetning hisob raqamiga oyiga 2 500 000 (ikki million besh yuz ming) so'm mablag'ni shartnomada

ko'rsatilgan ishlar bajarilgandan so'ng 15 kun muddat ichida to'liq o'tkazib berilishi kerak.

4.3. Tomonlar mazkur shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlarni o'zlariga bog'liq bo'limgan fors-major holatlar sababli bajarmasa yoki lozim darajada bajarmasa, shartnomadan kelib chiquvchi majburiyatlarni o'tashdan ozod etiladilar.

4.4. Fors-major holatlarga oldindan ko'rib va oldini olib bo'lmaydigan yoki oldini olish mumkin bo'limgan, Tomonlarning xohish-irodalariga bog'liq bo'limgan va shu bois Tomonlardan hech biriga majburiyatlarni o'tashga imkon bermaydigan holatlar kiradi.

4.5. Mazkur shartnomaga Tomonlar o'zaro kelishuv asosida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'limgan tarzda istalgan vaqtida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqli.

4.6. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi va Tomonlarning imzolari bilan tasdiqlanishi lozim.

4.7. Mazkur shartnomaga qilingan barcha ilovalar, qo'shimchalar va o'zgartirishlar shartnomaning tarkibiy qismi deb qaraladi.

4.8. Mazkur shartnoma Tomonlar imzolagan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi hamda **2022- yilning 30- sentyabr** sanasiga qadar kuchda bo'ladi.

## 5. Nizolarni hal etish tartibi

Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolarni Tomonlar o'zaro kelishuv asosida qonuniy yo'l bilan hal etadilar. Agarda Tomonlar o'zaro kelisha olishmasa, nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

## 6. Yakunlovchi qoidalar

Mazkur shartnoma teng yuridik kuchga ega bo'lган ikki nusxada tuziladi va har tomon uchun bitta nusxa topshiriladi.

## 7. Tomonlarning yuridik manzili va ma'lumotlari

### Universitet:

**Alisher Navoiy nomidagi  
Toshkent davlat o'zbek  
tili va adabiyoti universiteti**

Yuridik manzil: Toshkent sh. Yakkasaroy t.  
Yusuf Xos Xojib 103-uy  
Tel./faks: 281-45-67  
INN: 201 122 919  
h/r: 2340 2000 3001 0000 1010  
sh/r: 400110860262877094100079001  
MFO: 00014  
INN: 302958664

Rektor

Sh.Sirojiddinov




Kafedra mudiri  
(mas'ul)

**Buyurtmachi:  
Respublika aerogeodeziya markazi**

Yuridik manzil: Toshkent sh. Yunusobod t.  
Xalqobod ko'chasi 8 uy  
Telefon: 234-10-00  
ATB "Kapital bank" Chorsu filiali  
INN: 201 058 997  
h/r: 2021 0000 9001 2611 8001  
MFO: 01033

Direktor



A.S.Omonov

Respublika toponimika xizmati boshlig'i  
(mas'ul)